



bo'lishi;

- ✓ Issiq mavsumda o'rtacha +30°S dan yuqori bo'lmagan haroratni va kamida 70% namlik darajasini ta'minlash imkoniyati;
- ✓ Issiqxona ustki qismini yopish tizimi: qalinligi kamida 180-200 mikron bo'lgan polietilen plyonka, ultrabinafsha nurlanishdan himoyalangan va YeVA faktorli;
- ✓ Fasad va issiqxona yon tomonlarini qoplash: Qalinligi kamida 8 mm, 3-4 kamerali shaffof polikarbonat qoplamasi bilan jihozlangan;
- ✓ Isitish tizimi: Tabiiy gaz qozon asosiy va zaxira isitish tizimi bo'lishi 2,500.000 k.kal/s.;
- ✓ Elektr toki: kuchlanish 380 volt, 3 fazali, 50 gigagersli chastota va muqobil ravishda quyosh paneli va generator;
- ✓ Tunnel kengligi: kamida 9.5 m;
- ✓ Tarnovgacha balandlik: kamida 5 m;
- ✓ Issiqxona balandligi: kamida 7.5 metr;
- ✓ Maks. Shamol yuki: kamida 35 kgf/m<sup>2</sup> ;
- ✓ Maks. Shamol tezligi: kamida 120 km/s;
- ✓ Maks. Qor yuki: yerning gorizonta yuzasining 1 m<sup>2</sup> maydonida - 25 kgf/m<sup>2</sup>;
- ✓ Ko'chatlar uchun avtomatlashtirilgan "Boom" sug'orish tizimini joriy etish;
- ✓ Payvantaglar uchun avtomatlashtirilgan tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish;
- ✓ Osmo ventelyator;
- ✓ Tumanlashtirish tizimi;
- ✓ Issiq suv ta'minoti (texnik ehtiyojlar) – suv isitgichi (qozonxona);
- ✓ Suv chiqarish tizimi (texnik, maishiy ehtiyojlar uchun);
- ✓ Tuvaklarni joylashtirish uchun stellaj kengligi 2 m uzunligi 40 m balandligi 1 m.

**Muqobil energiya manbai** - Hozirda dunyo boylab cheklangan energiya resurslarini saqlash, ularni o'rniga tabiiy quyosh batareyalaridan foydalanish keng tarqalib kelmoqda. Ekologik toza ko'chatxona yaratishda quyosh batareyalaridan foydalanish ko'pgina qulayliklar yaratib qolmay elektor energiya xarajatlarini ham bir qancha iqtisod qilishga sabab bo'ladi.

**Suv tejoychi texnologiya** - Ekologik toza ko'chatxona yaratishda suv tejoychi (tomchilatib va tuman hosil qiluvchi) texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan xalqaro davlatlar zamonaviy ko'chatxonalarda avtomatlashtirilgan (Boom) sug'orish tizimidan foydalanib kelinmoqda.

Bu avtomatlashtirilgan tizimning qulayliklari shundan iboratki sug'orish davrida kiritilgan me'yorlardan kelib chiqqan holda ko'chatlarga ortiqcha zarar yetkazmaydi va har bir ko'chatning bir me'yorda sug'orilishini ta'minlaydi.

Bunda 4 gektar ochiq maydonda va 1,0 gektar zamonaviy issiqxona ko'chatchilik komplekslarida yetishtiriladigan payvandtag va ko'chatlar uchun to'liq suv tejoychi (tomchilatib va tuman hosil qiluvchi) texnologiyalar joriy etiladi.

Suv manbasi uchun yer osti tik qudug'i qaziladi va shu yer osti suvidan foydalaniladi.

**Organik o'g'it va biopreparatlar** - organik o'g'itlar tuproqda biologik jarayonlarni kuchaytirib, uning fizik va kimyoviy xossalarni yaxshilaydi, oziq moddalar miqdorini oshiradi, tuproqning muhim xususiyatlariga har tomonlama ta'sir etadi va hosildorligini keskin oshiradi.

Shu sababli, zamonaviy issiqxona ko'chatchilik komplekslarida payvandtag hamda ko'chatlar organik o'g'itlar va biopreparatlar orqali yetishtiriladi.

Yoshlarni zamonaviy ko'chatchilikka o'qitish 4 ta yo'nalishda amalga oshirilib har yili 40-50 nafar yoshlar o'qitiladi. Ushbu o'quv binosi 44 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan 1 dona xona va 20 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan o'qituvchilar xonasi.

Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- ✓ Payvandtag va ko'chat yetishtirish texnologiyasi
- ✓ O'simliklarni himoya qilish
- ✓ Global G.A.P.
- ✓ Organik qishloq xo'jaligi

Ushbu 4 ta yo'nalishni o'rganish mobaynida yoshlarga payvandtag va ko'chatlarni qanday yetishtirish, adaptatsion va o'sish davrida o'simliklarni har

xil kassaliklardan himoya qilish, organik moddalardan samarali foydalangan holda kerakli natijaga muddatdan oldin erishish hamda xalqaro Global G.A.P. jahon standartlari bo'yicha qanday vazifalarni bajarishi va qanday qulayliklar yaratishi haqida keng ma'lumotga ega bo'ladilar.

### **LOYIHADAN ERISHILADIGAN NATIJALAR**

- 5 gektar maydonda jahon talablariga javob beradigan zamonaviy ko'chatxona kompleksi barpo etiladi.
- Zamonaviy ko'chatxona kompleksi yevro devor bilan tusiladi, videokuzatuv kameralari va nazorat punkti o'rnatiladi.
- Artizan quvurlari orqali yerosti suvlaridan foydalaniladi 40 m<sup>3</sup>/soatiga dan kam bo'lmagan holda.
- Ochiq havoda shpaler sistema usulida 4 gektar maydonda zamonaviy ko'chatchilik xo'jaligi tashkil etiladi.
- 20 sotix maydonda shu daraxt navlaridan ko'rgazmali ona bog' barpo etiladi.
- O'quv kursida 20 nafar yoshlar uchun o'quv xona quriladi.
- Ma'muriyat, ishchilar uchun esa ovqat tayyorlash va ist'emol qilish, kiyim almashtirish va boshqa binolar quriladi.
- 3 dona avtoullov sig'imidan ko'proq avtoturargoh tashkil etiladi.
- 20 m<sup>2</sup> maydonda dala shiyponi quriladi.
- Operator va navbatchi xona yaratiladi, 2 kishi uxlashga sharoiti bor bino.
- Birinchi yil 200 ming dona payvandtag va ko'chatlar yetishtiriladi.
- Ikkinchi yil esa 200 ming dona 6 turdagi mevali payvandtag va ko'chatlar tayyorlanadi.
- 100 m<sup>2</sup> maydonga ega, balandligi 5 m bo'lgan, ko'chatlarni saqlashga sovuqxona yaratiladi (0-8°S daraja haroratni ta'minlash lozim).
- Tomchilatib sug'orish va yong'inga qarshi 500 m<sup>3</sup> xajmli suv hovuzlari quriladi.
- 20 nafar yangi ish o'рни yaratiladi: ko'chatxona – 10, agrotexnologiya – 4, marketing va sotuv – 4, malaka oshirish – 2.
- Loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertizasidan o'tishi lozim va ichiga

quyidagilarni qamrab oladi:

- Yagona darchaga APZ uchun ariza
- Geologik, gidrogeologik xulosa va maydon Toposyomkasi.
- Tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limidan ZVOS va eko xulosa olish uchun shartnoma tuzish.
- Tuman SES dan yozma ravishda ruxsatnoma olish.
- Davlat Arxitektura va qurilish boshqarmasi, Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi, SES, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi va Buyutrmachi tashkilot uchun Eskiz proektini, Umumiy ko'rinishini ishlab chiqish.
- Inshootlarning temir-beton qismi, yong'in xavfsizligi qismi, arxitektura va qozonxona qismi va umumiy rejaning ishchi loyhalarini tuzish.
- Yagona daracha tizimi orqali tuman Davlat arxitektura va qurilish nazoratiga bildirishnoma.
- Mualliflik nazorati.

3. Tanlov hujjati 1 lotdan iborat. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli.

4. Xalqaro moliya institutlari mablag'lari.

5. To'lov birligi: milliy valyutada, pul o'tkazish yo'li bilan.

6. To'lov sharti: oldindan 30 foiz; qolgan qismi qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida amalga oshirilishi mumkin.

7. Ishlarning bajarish muddati: xarid xujjatlarida tegishli barcha talablarni bajarish sharti bilan (ekspertiza, topos'emka, mualliflik nazorati va h.k.) 40 kalendar kun.

8. Yetkazib berish manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Toshkent tumani Chimkent yo'li ko'chasi, Guliston QFY.

9. Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar (mezonlar):

### ***Texnik baholash***

1. *Ishtirokchining (korxonasi) guvohnomasi;*
2. *Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi (tegishli ruxsatnomasi)*

- mavjudligi);*
- 3. Soliqlar va yig'implar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi;*
  - 4. O'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;*
  - 5. Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi;*
  - 6. Tanlov ishtirokchisi tomonidan korrupsion omillarga yo'l qo'ymaslik xaqidagi ariza;*
  - 7. Mutaxassislar soni va ularning tajribasi bo'yicha ma'lumoti;*
  - 8. Oxirgi 2 yillikda bajarilgan ishlar bo'yicha ma'lumot;*
  - 9. Ijrochi tomonidan mazkur xizmatni qisqa muddatlarda bajarilishini ta'minlash bo'yicha kafolat xati;*
  - 10. Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchining tanlov takliflari qonunchilikka muvofiq davlat tilida rasmiylashtirishi lozim.*

### **Moliyaviy baholash**

- 11. Maxsus informatsion portalga e'lon chop etilgan sana xolatiga tanlov ishtirokchisining aylanma mablag'lari qoldig'i to'g'risida bank ma'lumoti. (Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi shart);*
- 12. Maxsus informatsion portalga e'lon chop etilgan sana holatiga ishtirokchining asosiy bank hisob-raqamidagi oxirgi olti oylik kreditorlik qarzdorligi to'g'risida ma'lumot. (Ishtirokchining x/r inkassa, kartotekasi mavjudligi qachon va kim tomonidan qo'yilganligi, sanasi, yechilgan sana va h.k.). Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi shart;*
- 13. Ishtirokchining bankidan imzo namunalari kartochkasi nusxasi bo'lishi lozim. Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi lozim. (bankdan asliga to'g'ri qilib tasdiqlab berilishi shart);*
- 14. Oxirgi 2 yillik soliqqa topshirilgan balans va moliyaviy natijalar to'g'risida xisobotlar taqdim etiladi. Tashkiliy huquqiy-shaklidan kelib chiqib ta'sis xujjatlari, ta'sischilarning ulushlari, ustavi va boshqa tegishli tasdiqlovchi xujjatlar. Taqdim etilgan xujjatlar buyurtmachi tomonidan o'rganib chiqiladi va baxolanadi.*
- 15. Tanlov faqat elektron tartibda o'tkaziladi. Ishtirokchilar tanlov takliflarini**

elektron konvert ko'rinishida o'zlarining shaxsiy kabinetlari orqali qonunchilikka muvofiq taqdim etadilar.

**16.** INN: 200580310

**17.** Buyurtmachi manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Toshkent tumani Chimkent yo'li ko'chasi, Guliston QFY.

**18.** Boshlang'ich narx: 458 mln.so'm (to'rt yuz ellik sakkiz million so'm). Mutaxassislarning borish-kelish, yashash kabi va boshqa barcha rasmiy to'lovlarni xisobga olgan xolda.

**19.** Buyurtmachi nomi: Akademik Maxmud Mirzaev nomli bog'dorchilik uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti.

**20.** Aloqaga chiquvchi shaxs: Bosh xisobchi Xamraev Bexzod +99897 912-70-08.

**21.** e-mail: buviti@mail.ru

**22.** Elektron tanlovni o'tkazuvchi operator nomi va uning xavolasi: <https://dxarid.uzex.uz/ru/competitive/>.

**23.** Takliflar qonunchilik talablari asosida, davlat tilida tuziladi.

**24.** Ishtirokchi maxsus platformaga joylashtirilgan ma'lumotlarning xaqqoniyligi yuzasidan to'liq javobgar xisoblanadi.

*Izoh: Qo'shimcha savollarni qonunchilikda belgilangan muddatlarga amal qilgan xolda 9:00-18:00 gacha yo'llashingiz mumkin.*

## **TEXNIK TOPSHIRIQ**

**Reja:**

- I. NOYOB, YO'QOLIB KETAYOTGAN MEVA-UZUM NAVLARNI TIKLASH**
- II. EKOLOGIK TOZA KO'CHATXONA YARATISH**
- III. YOSHLARNI ZAMONAVIY KO'CHATCHILIKKA O'QITISH**
- IV. LOYIHADA ERISHILADIGAN NATIJALAR**

### **NOYOB, YO'QOLIB KETAYOTGAN MEVA-UZUM NAVLARNI TIKLASH**

**Loyiha doirasida quyidagi meva va uzum navlarini saqlab qolish ko'zda tutilgan:**

1. Olma 3 ta nav (Boysun olma, Jonaqi olma, Mayskiy).

2. Nok 3 ta nav (Olmurut, Yurt Nashvati, Salom-2).
3. O'rik 4 ta nav (Zubaydullaxon, Buzrukxon, Non dovuchcha, Lola o'rik).
4. Shaftoli 2 ta nav (Oq luchchak, Lola).
5. Anor 3 ta nav (Qayim anor, Guloysha, Qay-achchiq anor).
6. Uzum 3 ta nav (Olomon to'ydi, Qarsildoq, Surxak kitobi)

Yuqorida keltirilgan meva – uzum navlarini saqlab qolish, ularning sonini ko'paytirish uchun bir qator ishlarni amalga oshirish lozim bo'ladi.

Bunda ko'chatlarni vaqtincha saqlash uchun sendvich qoplamaga ega bo'lgan xona bo'lishi hamda ushbu xona haroratini mo'tadil saqlab turish yani sovitish va isitish tizimi bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

Ushbu sendvich qoplamali xona nafaqat saqlash, payvand qilish ishlarini ham amalga oshirish imkonini beradi.

## **EKOLOGIK TOZA KO'CHATXONA YARATISH**

Hozirgi kunda zamonaviy ekologik toza ko'chatxona yaratishda bir qancha omillarni inobatga olish kerak bo'ladi.

Bularga quyidagilar kiradi:

- ✓ Viruslardan himoyalangan zamonaviy issiqxona
- ✓ Muqobil energiya manbai
- ✓ Suv tejevchi texnologiya
- ✓ Organik o'g'it va biopreparat

**Viruslardan himoyalangan zamonaviy issiqxona** - hozirgi kunda zamonaviy issiqxonalar ko'payib bormoqda. Ammo ularning hammasi ham viruslardan himoyalangan issiqxona talablariga javob bera olmaydi.

**Viruslardan himoyalangan 1 ga maydondagi zamonaviy issiqxona quyidagi talablarga javob bera oladigan bo'lishi kerak:**

- ✓ Yiliga o'rtacha 200 ming dona payvandtag yetishtirish;
- ✓ Sovuq mavsumda kamida +18°C haroratni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lishi;
- ✓ Issiq mavsumda o'rtacha +30°C dan yuqori bo'lmagan haroratni va kamida 70% namlik darajasini ta'minlash imkoniyati;



- ✓ Issiqxona ustki qismini yopish tizimi: qalinligi kamida 180-200 mikron bo'lgan polietilen plyonka, ultrabinafsha nurlanishdan himoyalangan va YeVA faktorli;
- ✓ Fasad va issiqxona yon tomonlarini qoplash: Qalinligi kamida 8 mm, 3-4 kamerali shaffof polikarbonat qoplamasi bilan jihozlangan;
- ✓ Isitish tizimi: Tabiiy gaz qozon asosiy va zaxira isitish tizimi bo'lishi 2,500.000 k.kal/s.;
- ✓ Elektr toki: kuchlanish 380 volt, 3 fazali, 50 gigagersli chastota va muqobil ravishda quyosh paneli va generator;
- ✓ Tunnel kengligi: kamida 9.5 m;
- ✓ Tarnovgacha balandlik: kamida 5 m;
- ✓ Issiqxona balandligi: kamida 7.5 metr;
- ✓ Maks. Shamol yuki: kamida 35 kgf/m<sup>2</sup> ;
- ✓ Maks. Shamol tezligi: kamida 120 km/s;
- ✓ Maks. Qor yuki: yerning gorizontaal yuzasining 1 m<sup>2</sup> maydonida - 25 kgf/m<sup>2</sup>;
- ✓ Ko'chatlar uchun avtomatlashtirilgan "Boom" sug'orish tizimini joriy etish;
- ✓ Payvantaglar uchun avtomatlashtirilgan tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish;
- ✓ Osma ventelyator;
- ✓ Tumanlashtirish tizimi;
- ✓ Issiq suv ta'minoti (texnik ehtiyojlar) – suv isitgichi (qozonxona);
- ✓ Suv chiqarish tizimi (texnik, maishiy ehtiyojlar uchun);
- ✓ Tuvaklarni joylashtirish uchun stellaj kengligi 2 m uzunligi 40 m balandligi 1 m.

**Muqobil energiya manbai** - Hozirda dunyo boylab cheklangan energiya resurslarini saqlash, ularni o'rniga tabiiy quyosh batareyalaridan foydalanish keng tarqalib kelmoqda. Ekologik toza ko'chatxona yaratishda quyosh batareyalaridan foydalanish ko'pgina qulayliklar yaratib qolmay elektor energiya xarajatlarini ham bir qancha iqtisod qilishga sabab bo'ladi.

**Suv tejoyvchi texnologiya** - Ekologik toza ko'chatxona yaratishda suv tejoyvchi (tomchilatib va tuman hosil qiluvchi) texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rivojlangan xalqaro davlatlar zamonaviy ko'chatxonalarda avtomatlashtirilgan (Boom) sug'orish tizimidan foydalanib

kelinmoqda.

Bu avtomatlashtirilgan tizimning qulayliklari shundan iboratki sug'orish davrida kiritilgan me'yorlardan kelib chiqqan holda ko'chatlarga ortiqcha zarar yetkazmaydi va har bir ko'chatning bir me'yorda sug'orilishini ta'minlaydi.

Bunda 4 gektar ochiq maydonda va 1,0 gektar zamonaviy issiqxona ko'chatchilik komplekslarida yetishtiriladigan payvandtag va ko'chatlar uchun to'liq suv tejevchi (tomchilatib va tuman hosil qiluvchi) texnologiyalar joriy etiladi.

Suv manbasi uchun yer osti tik qudug'i qaziladi va shu yer osti suvidan foydalaniladi.

**Organik o'g'it va biopreparatlar** - organik o'g'itlar tuproqda biologik jarayonlarni kuchaytirib, uning fizik va kimyoviy xossalarini yaxshilaydi, oziq moddalar miqdorini oshiradi, tuproqning muhim xususiyatlariga har tomonlama ta'sir etadi va hosildorligini keskin oshiradi.

Shu sababli, zamonaviy issiqxona ko'chatchilik komplekslarida payvandtag hamda ko'chatlar organik o'g'itlar va biopreparatlar orqali yetishtiriladi.

## **I. YOSHLARNI ZAMONAVIY KO'CHATCHILIKKA O'QITISH**

Yoshlarni zamonaviy ko'chatchilikka o'qitish 4 ta yo'nalishda amalga oshirilib har yili 40-50 nafar yoshlar o'qitiladi. Ushbu o'quv binosi 44 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan 1 dona xona va 20 m<sup>2</sup> dan kam bo'lmagan o'qituvchilar xonasi.

Ushbu yo'nalishlar quyidagilardan iborat:

- ✓ Payvandtag va ko'chat yetishtirish texnologiyasi
- ✓ O'simliklarni himoya qilish
- ✓ Global G.A.P.
- ✓ Organik qishloq xo'jaligi

Ushbu 4 ta yo'nalishni o'rganish mobaynida yoshlarga payvandtag va ko'chatlarni qanday yetishtirish, adaptatsion va o'sish davrida o'simliklarni har xil kassaliklardan himoya qilish, organik moddalardan samarali foydalangan holda kerakli natijaga muddatdan oldin erishish hamda xalqaro Global G.A.P. jahon standartlari bo'yicha qanday vazifalarni bajarishi va qanday qulayliklar yaratishi haqida keng ma'lumotga ega bo'ladilar.

## II. LOYIHADAN ERISHILADIGAN NATIJALAR

- 5 gektar maydonda jahon talablariga javob beradigan zamonaviy ko'chatxona kompleksi barpo etiladi.
- Zamonaviy ko'chatxona kompleksi yevro devor bilan tusiladi, videokuzatuv kameralari va nazorat punkti o'rnatiladi.
- Artizan quvurlari orqali yerosti suvlaridan foydalaniladi 40 m<sup>3</sup>/soatiga dan kam bo'lmagan holda.
- Ochiq havoda shpaler sistema usulida 4 gektar maydonda zamonaviy ko'chatchilik xo'jaligi tashkil etiladi.
- 20 sotix maydonda shu daraxt navlaridan ko'rgazmali ona bog' barpo etiladi.
- O'quv kursida 20 nafar yoshlar uchun o'quv xona quriladi.
- Ma'muriyat, ishchilar uchun esa ovqat tayyorlash va ist'emol qilish, kiyim almashtirish va boshqa binolar quriladi.
- 3 dona avtoullov sig'imidan ko'proq avtoturargoh tashkil etiladi.
- 20 m<sup>2</sup> maydonda dala shiyponi quriladi.
- Operator va navbatchi xona yaratiladi, 2 kishi uxlashga sharoiti bor bino.
- Birinchi yil 200 ming dona payvandtag va ko'chatlar yetishtiriladi.
- Ikkinchi yil esa 200 ming dona 6 turdagi mevali payvandtag va ko'chatlar tayyorlanadi.
- 100 m<sup>2</sup> maydonga ega, balandligi 5 m bo'lgan, ko'chatlarni saqlashga sovuqxona yaratiladi (0-8°S daraja haroratni ta'minlash lozim).
- Tomchilatib sug'orish va yong'inga qarshi 500 m<sup>3</sup> xajmli suv hovuzlari quriladi.
- 20 nafar yangi ish o'rni yaratiladi: ko'chatxona – 10, agrotexnologiya – 4, marketing va sotuv – 4, malaka oshirish – 2.
- Loyiha-smeta hujjatlari davlat ekspertizasidan o'tishi lozim va ichiga quyidagilarni qamrab oladi:
  - Yagona darchaga APZ uchun ariza
  - Geologik, gidrogeologik xulosa va maydon Toposyomkasi.
  - Tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'limidan ZVOS va eko xulosa olish uchun shartnoma tuzish.
  - Tuman SES dan yozma ravishda ruxsatnoma olish.
  - Davlat Arxitektura va qurilish boshqarmasi, Favqulotda vaziyatlar boshqarmasi, SES, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi va Buyutrmachi tashkilot uchun Eskiz proektini, Umumiy ko'rinishini ishlab chiqish.
- Inshootlarning temir-beton qismi, yong'in xavfsizligi qismi, arxitektura va qozonxona qismi va umumiy rejaning ishchi loyhalarini tuzish.
- Yagona darcha tizimi orqali tuman Davlat arxitektura va qurilish nazoratiga

bildirishnoma.

➤ Mualliflik nazorati.

Loyiha-smeta hujjatlarini mazkur hujjatda va boshqa tegishli qonunchilikda belgilangan me'yor va standartlarga muvofiq sifatli ishlab chiqilishi uchun sarflanadigan, shuningdek, mutaxassislarining borish-kelish, yashash kabi va boshqa barcha rasmiy to'lovlarni hisobga olgan holda boshlang'ich narxi 458 000 000 (to'rt yuz ellik sakkiz million) so'mni tashkil etadi.

### **TANLOV ISHTIROKCHILARINING BAXOLASH MEZONLARI**

Kelib tushgan takliflarning texnik va moliyaviy baxolash xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

1-6 bo'lgan mezonlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni/yoki birini ishtirokchi tomonidan taqdim etilmaganda bunday ishtirokchi tanlovdan diskvalifikatsiya qilinadi.

#### **Texnik baholash mezonlari**

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Baholash</b>	<b>Izoh</b>
1	Ishtirokchining (korxon) guvoxonmasi	Mavjud / mavjud emas	Agar mavjud bo'lmasa ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
2	Shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egaligi (tegishli ruxsatnomasi mavjudligi)	Muvofiq / nomuvofiq	Agar nomuvofiq bo'lsa ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
3	Soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarzdorlikning mavjud emasligi	Mavjud / mavjud emas	Agar mavjud bo'lsa ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
4	O'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi	Mavjud / mavjud emas	Agar mavjud bo'lsa ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
5	Insofsiz ijrochilarning yagona reestrda qayd etilmaganligi	Qayd etilgan / etilmagan	Agar qayd etilgan bo'lsa ishtirokchi diskvalifikatsiya qilinadi
6	Tanlov ishtirokchisi tomonidan	Ariza mavjud /	Agar mavjud

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Baholash</b>	<b>Izoh</b>
	korrupsion omillarga yo'l qo'ymaslik xaqidagi ariza.	mavjud emas	bo'lmasa diskvalifikatsiya qilinadi
7	Mutaxassislar soni va ularning tajribasi bo'yicha ma'lumoti	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi
8	Oxirgi 2 yillikda bajarilgan ishlar bo'yicha ma'lumot	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi
9	Ijrochi tomonidan mazkur xizmatni qisqa muddatlarda bajarilishini ta'minlash bo'yicha kafolat xati	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi
10	Tanlovda ishtirok etish uchun ishtirokchining tanlov takliflari qonunchilikka muvofiq davlat tilida rasmiylashtirishi lozim	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi

Izoh: 1-6 gacha bo'lgan mezonlar bo'yicha ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan xujjatlarga yaxlit 200 ball beriladi. Qolgan 7-10 gacha bo'lgan mezonlar bo'yicha qo'yilgan talablarga 0 dan - 100 ballgacha bo'lgan shkala asosida nisbiy baholanadi.

### **Moliyaviy baholash mezonlari**

<b>№</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Baholash</b>	<b>Izoh</b>
11	Maxsus informatsion portalga e'lon joylashtirilgan sana xolatiga tanlov ishtirokchisining aylanma mablag'lari qoldig'i to'g'risida bank ma'lumoti. (Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi shart)	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi
12	Maxsus informatsion portalga e'lon joylashtirilgan sana xolatiga ishtirokchining asosiy bank hisob-raqamidagi oxirgi olti oylik kreditorlik qarzdorligi to'g'risida ma'lumot. (Ishtirokchining x/r inkassa, kartotekasi mavjudligi qachon va kim	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi

№	Mezonlar	Baholash	Izoh
	tomonidan qo'yilganligi, sanasi, yechilgan sana va h.k.). Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi lozim.		
13	Ishtirokchining bankidan imzo namunalari kartochkasi nusxasi bo'lishi shart. Ma'lumotga bank boshqaruvchisi va bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanishi shart. (bankdan asliga to'g'ri qilib tasdiqlab berilishi lozim)	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi
14	Oxirgi 2 yillik soliqqa topshirilgan balans va moliyaviy natijalar to'g'risida xisobotlari. Tashkiliy huquqiy-shaklidan kelib chiqib (ta'xis xujjatlari, ta'xischilarning ulushlari, ustavi va boshqa tegishli tasdiqlovchi xujjatlar). <i>(Taqdim etilgan xujjatlar buyurtmachi tomonidan o'rganib chiqiladi va baholanadi)</i>	0 – 100 ballgacha baholanadi	Nisbiy ball beriladi

Izoh: 11-14 gacha bo'lgan mezonlar bo'yicha qo'yilgan talablarga 0 dan - 100 ballgacha bo'lgan shkala asosida nisbiy baholanadi.

Ishtirokchi taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligiga va to'g'riligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

## ENG YAXSHI ELEKTRON TAKLIFLARNI TANLASH ISHTIROKCHILARI UCHUN Y O' R I Q N O M A

Ushbu yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 22-aprel 2021-y. O'RB-684-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligining "Xarid taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida qayd qilingan buyrug'i (ro'yxat raqami 3016, 26.05.2018 y) asosida ishlab chiqilgan.

Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti eng yaxshi takliflarni tanlash tanlovning Buyurtmachisi (keyingi o'rinlarda - "Buyurtmachi") hisoblanadi.

“Buyurtmachi”ning manzili: Toshkent viloyati, Toshkent tumani, Chimkent yo‘li ko‘chasi, Guliston QFY.

Eng yaxshi takliflarni tanlash "Buyurtmachi" tomonidan tashkil etilgan tanlov o‘tkazish uchun vaqtinchalik organ hisoblanadigan xaridlar bo‘yicha komissiya o‘tkazadi.

Shartnoma egasi: Akademik Maxmud Mirzaev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti.

## **1. Elektron tanlov o‘tkazishda tanlov hujjatlarini ishlab chiqish va elektron tanlov o‘tkazilishi haqida e‘lon berish**

1.1. Buyurtmachi tomonidan elektron shaklda tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinganidan so‘ng buyurtmachining mutaxassislari yoki elektron shaklda tanlovni tashkillashtirish va o‘tkazish uchun mas‘ul shaxs tomonidan tanlov hujjatlarini, shartnoma va elektron tanlov o‘tkazish haqidagi e‘lon matnlarini ishlab chiqiladi.

1.2. Elektron shaklda tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa eng kamida quyidagi axborot bo‘lishi kerak:

1.3. Tovarining (ishning, xizmatning) batafsil tavsifi va narxi;

1.4. Elektron tanlov ishtirokchilariga qo‘yiladigan talablar;

1.5. Buyurtmachining ishtirokchilar bilan aloqada bo‘lish uchun bog‘lovchi shaxslar sifatida belgilangan bir yoki bir nechta mansabdor shaxsining yoki boshqa xodimlarining F.I.O., lavozimi va manzili;

1.6. Tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan vaqt va sana;

1.7. Tanlov takliflarini rasmiylashtirishga doir talablar.

Tovar, ishlar va xizmatlarning xususiyatidan kelib chiqib boshqa qonunchilikka zid bo‘lmagan buyurtmachining talablari xarid xujjatlarida kiritilishi mumkin.

## **2. Ishtirokchilar tomonidan elektron shaklda tanlov taklifini berish**

2.1. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlov taklifida ko‘rsatilgan ma‘lumotlariga mos bo‘lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to‘ldirilishi kerak.

2.2. Elektron shakldagi tanlov o‘tkazilganda ishtirokchilar tanlov takliflarini elektron konvert ko‘rinishida o‘zlarining shaxsiy kabinetlari orqali elektron tanlovni o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa ko‘rsatilgan muddatdan kechiktirmay taqdim etadilar.

2.3. Ishtirokchining tanlov taklifining ajralmas qismi bo‘lgan elektron hujjatlar belgilangan formatlarda taqdim etiladi. Har bir joylashtirilgan elektron hujjat ishtirokchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

2.4. Tanlov taklifi bilan birgalikda ishtirokchilar eskizlar, rasmlar, chizmalar, fotosuratlar va boshqa hujjatlarni fayl sifatida joylashtirishlari mumkin.

Bunda ishtirokchilarning tanlov takliflari elektron tizimdagi na'munalarga muvofiq hujjatlarni biriktirish orqali taqdim etiladi. Ishtirokchi tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlar biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarga mos kelishi kerak.

2.5. Elektron shakldagi tanlov ishtirokchisi bitta lotga faqat bitta tanlov taklifini berishga haqli.

2.6. Elektron tanlov ishtirokchisi tomonidan taqdim etilayotgan axborot va hujjatlarning haqiqiyliги va to'g'riligi uchun javobgar bo'ladi.

2.7. Xarid xujjatlarida ishtirokchiga qo'yilgan talablardan tashqari, ishtirokchi o'zining moliyaviy holati, nufuzi, ish tajribasi va boshqalarni aks ettiruvchi qo'shimcha ma'lumot xarakteridagi hujjatlarini taqdim etishga haqli. Qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilmaslik ishtirokchining diskvalifikatsiyasi uchun asos bo'la olmaydi.

### **3. Elektron shakldagi tanlov taklifi va uni ro'yxatga olish tartibi**

3.1. Tanlov takliflarini ochish muddati yetib kelgunga qadar elektron tanlov ishtirokchilari, shu jumladan xarid komissiyasi mas'ul kotibi va a'zolari tomonidan ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi, ushbu takliflarni taqdim etgan ishtirokchi bundan mustasno. Mazkur talabning bajarilishiga mas'ul kotib javobgar hisoblanadi.

3.2. Elektron tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan tanlov takliflarini berish muddati tugaguniga qadar berilgan tanlov taklifini chaqirib olishga yoki unga o'zgartirishlar kiritishga haqli.

3.3. Elektron tanlov ishtirokchisi tanlov hujjatlaridagi talablarni tushuntirish talabi bilan buyurtmachiga ochiq elektron chat orqali tanlov takliflarini berish muddati tugaydigan sanadan kamida ikki kun oldin so'rov yuborishga haqli.

3.4. Tanlov taklifi qonunchilik talablariga muvofiq davlat tilida taqdim etiladi.

### **4. Ishtirokchilarning elektron takliflarini baholash mezonlari**

4.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi: g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'ladi.

4.2. Ishtirokchilarning tanlov takliflarini - taqqoslash yo'li bilan Ballik shkala asosida baholanadi. Bunda buyurtmachi tomonidan qo'yilgan 1-6 gacha bo'lgan mezonlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni/yoki birini ishtirokchi taqdim etmasa bunday ishtirokchi tanlovdan diskvalifikatsiya qilinadi; 1-6 gacha bo'lgan mezonlar bo'yicha ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan xujjatlarga yaxlit 200 ball beriladi. Qolgan 7-14 gacha bo'lgan mezonlar bo'yicha buyurtmachi tomonidan qo'yilgan talablarga 0 dan - 100 ballgacha bo'lgan shkala asosida nisbiy baholanadi. Eng ko'p ball to'plagan ishtirokchi g'olib deb topiladi.



## **5. Elektron tanlov natijalarini sarxisob qilish**

5.1. Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tanlov taklifining texnik va moliyaviy qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) aniqlaydi;

5.2. Elektron tanlovda bitta ishtirokchi ishtirok etgan yoki bironta ishtirokchi ishtirok etmagan taqdirda tanlov o'tkazilmagan deb topiladi. Bunday holatda buyurtmachi tanlovni ayni o'sha shartlarda hamda tovarga (ishga, xizmatga) doir ayni o'sha mezonlarga va talablarga muvofiq takroran amalga oshiradi.

5.3. Elektron tanlov xarid komissiyasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlov takliflarini tashkil etuvchi elektron xujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

5.4. Ishtirokchi tomonidan biriktirilgan fayllar uning tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlariga mos bo'lishi hamda elektron tizimdagi elektron maydonlar to'ldirilishi kerak.

5.5. Elektron tizim ishtirokchi taklif etgan narxni boshlang'ich narxga muvofiqligini va elektron maydonlarning to'ldirilganligini hamda biriktirilgan fayllarning mavjudligini tekshiradi. Ishtirokchi tomonidan taklif etilgan narx boshlang'ich narxdan yuqori bo'lsa, shuningdek to'ldirilmagan maydonlar mavjud bo'lsa yoki biriktirilgan fayllar to'liq bo'lmasa, elektron tizim rad etish sababini ko'rsatgan holda ishtirokchining taklifini rad etadi. Biriktirilgan fayllardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tanlov taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish xarid komissiyasining mas'ul kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

5.6. Agar tanlov taklifi Qonunning va tanlov hujjatlarining talablariga muvofiq bo'lsa, u tegishli tarzda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Tanlov taklifi tegishli tarzda rasmiylashtirilganligi yoki rasmiylashtirilmaganligi bo'yicha xarid komissiyasi mas'ul kotibining qarori, uning asoslangan sabablari bilan xarid komissiyasi tomonidan tasdiqlanishi lozim.

5.7. Tanlov takliflarini baholash vaqtida xarid komissiyasining mas'ul kotibi elektron tanlov ishtirokchilaridan ularning tanlov takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

5.8. Tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tanlov takliflarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda) aniqlaydi;

ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) tanlov taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

## 6. Tomonlarning mas'uliyati va maxfiylikka amal qilishi

6.1. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

6.2. Xarid komissiyasi ijrochini aniqlash taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi, u qabul qiladigan qarorlarining asosliliigi va xolisligi uchun javobgarlikni zimmasiga oladi.

6.3. Tanlov ishtirokchisi taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va to'g'riligi uchun javobgarlikni zimmasiga oladi. G'olib deb topilgan taqdirda, davlat buyurtmachisi bilan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartib va muddatlarda shartnoma tuzishi shart.

## 7. Boshqa shartlar

7.1. Ishtirokchi Buyurtmachiga tanlash takliflarini topshirish muddati tugashidan ikki kun oldin tanlov hujjatlari qoidalariga aniqlik kiritish uchun so'rov yuborishga haqli. Ko'rsatilgan so'rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida Buyurtmachi tanlov hujjatlari qoidalarining mohiyatini o'zgartirmasdan tushuntirish yuborishi shart.

7.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash ko'rib chiqish uchun topshirish muddati tugaganidan so'ng kelib tushgan ishtirokchilarning tanlov takliflarini ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi. Tanlov takliflarini topshirish davrida ishtirokchi ilgari taqdim etilgan tanlov taklifini qaytarib olishga yoki unga o'zgartirish kiritishga haqli.

7.3. Ishtirokchi taqdim etgan takliflarni, buyurtmachi qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqish va haqqoniyligi yuzasidan o'rganish huquqiga ega. Buning natijasida takliflardan yoki taklifdan biri nomuvofiq bo'lsa mazkur ishtirokchining ushbu taklif baxosi 0 ga tenglashtirish yuzasidan xarid komissiyasining barcha a'zolari ijobiy ovoz beradi.

## SHARTNOMA LOYIHASI

\_\_\_\_\_ « \_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2022 yil

Kelgusida «Buyurtmachi» deb nomlanuvchi \_\_\_\_\_ nomidan Nizom asosida ish yurituvchi direktor \_\_\_\_\_ bir tomondan, kelgusida «Loyihachi» deb nomlanuvchi \_\_\_\_\_ nomidan ish yurituvchi direktor \_\_\_\_\_ ikkinchi tomondan, \_\_\_\_\_ ob'ektiga Loyihasmeta xujjatlarini ishlab chiqish shartnomani tuzdilar.

### 1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Loyihachi Buyurtmachining Loyihalash topshirig'i bo'yicha ishchi Loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi.

1.2. Buyurtmachi Loyiha-smeta ishlarini bajarish uchun topshiriq berish, zarur bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish, belgilangan tartibda va miqdorda xaqini to'lash majburiyatini oladi.

1.3. Loyihachi ko'rsatib o'tilgan ishlarni \_\_\_\_\_ qoida va qo'llanmalari va mazkur shartnomaning xujjatlariga asoslanib bajaradi va tugallaydi.

## **2. Ishlarni bajarish muddati**

2.1. Loyihachi ishlarni dastlabki avans to'lovi amalga oshirilgan kundan boshlab bajarishga kirishadi.

2.2. Mazkur shartnomada LSXni tayyorlash muddati, ishlar boshlangan kundan boshlab \_\_\_\_\_ kun etib belgilanadi.

2.3 Buyurtmachi tomonidan topshiriq, birlamchi ma'lumotlarni berish va Loyihachi tomonidan Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha ilovadagi ishchi LSX ishlab chiqish, amaldagi tartib qoidalar bo'yicha topshirish muddatlarini tomonlar kalendar jadvalda belgilaydilar va u shartnomaning ajralmas qismi xisoblanadi.

## **3. Shartnoma baxosi.**

3.1 Mazkur shartnoma bo'yicha Loyihachi tomonidan bajariladigan ishlar, barcha soliq va davlat ekspertizasini o'tkazish uchun yig'imlar va QQS, Muallif nazorati va Loyihachining ishchilarining xizmat safari xarajatlari bilan birga va boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda \_\_\_\_\_ni tashkil qiladi.

## **4. To'lov shartlari.**

4.1 Shartnomada milliy valyuta «so'mda» o'zaro xisob-kitob qilinishi belgilanadi, to'lovlar to'g'ridan-to'g'ri Loyihachi xisob raqamiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

4.2. Mazkur shartnoma bo'yicha maqsadli avans, ishlar umumiy qiymatining 30 foizini tashkil qiladi.

4.3. Pudratchi tomonidan Buyurtmachiga dastlabki smeta xujjatlarini topshirgandan so'ng Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga qo'shimcha

ravishda shartnomada belgilangan qiymatining 20 foizigacha bulgan mablag'ni to'lab berishi mumkin.

Pudratchi tomonidan shartnomada belgilangan ishlarning, xajmi, sifati va Loyihachining xisoboti tekshiradi, Pudratchi obektni davlat ekspertizalaridan o'tkazilib, aniqlangan kamchilik va xatolar, bildirilgan e'tirozlar to'laligicha bartaraf qilinib ijobiy xulosalar olingandan so'ng Shartnomada ko'rsatilgan umumiy summasining qolgan 50 foizi yakuniy to'lov sifatida Pudratchiga o'tkaziladi.

## **5. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.**

### **Loyihachining majburiyatlari:**

5.1. Loyihalash xaqidagi topshiriqqa va boshqa boshlang'ich malumotlarga muvofiq ishlarni bajarish va natijasini shartnomada belgilangan Buyurtmachiga topshirish majburiyatlarini oladi.

5.2 Tayyor bo'lgan LSX xujjatlarini foydalanish tashkilotlari (elektr tarmoqlari korxonasi, vodokanal, raygaz, yong'in xavfsizligi nazorati), tegishli davlat organlari bilan kelishib olish.

5.3 Buyurtmachining roziligisiz LSX xujjatlarini uchinchi shaxslarga bermaslik.

5.4. Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan dastlabki va birlamchi ma'lumotlarni, muxandislik qidiruv xulosalarini, Buyurtmachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi malumotlarni oshkor qilmaslik, ulardan faqat ushbu shartnomadagi predmetda foydalanish majburiyatini oladi.

5.5. Ob'ektda qurilish ishlari to'laligicha yakunlangandan so'ng, ishchi komissiyasiga Loyihachi ob'ektning LSX xujjatlari asosida qurilganligi to'g'risida xulosa taqdim qilish.

5.6. LSX xujjatlarini bir-biriga mutanosibli (mos kelishi) va ish xajmlarini ishchi chizmalarida berilgan ish turlari mosligi ShNK talablariga javob berishiga Loyihachi tashkiloti buyurtmachi va pudratchi oldida javobgardir.

### **Buyurtmachining majburiyati:**

5.7. Loyihachidan olingan LSX xujjatlaridan faqat mazkur shartnomada nazarda tutilgan maqsadlar uchun foydalanish, LQI xujjatlarini Loyihachining roziligisiz uchinchi shaxslarga bermaslik va ulardagi malumotlarni oshkor qilmaslik.

5.8. Shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomani 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni qabul qilib olish va bajarganlik uchun Loyihachiga xaq to'lash.

5.9. Loyihachiga Loyiha ishlarini bajarishda ushbu shartnomada nazarda tutilgan xajmda va shartlarda xizmat ko'rsatish.

## **6. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi**

6.1. Bajarilgan ishlarni baholash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida kalendar jadval bo'yicha amalga oshiriladi.

6.2. Loyihachi tomonidan topshiriladigan va rasmiylashtiriladigan xujjatlar ro'yxati texnik topshiriqda aniqlanadi.

6.3. Loyihachi ishlarni bajarib bo'lgach, Buyurtmachiga texnik topshiriqda ko'rsatilganidek topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib bitta elektron variant va 3ta nusxada xujjatlar komplektini xisobot bilan taqdim etadi.

6.4. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'rsatilganidek, topshirish - qabul qilish dalolatnomasini va hisobot xujjatlari bajarilgan ishlarni 15 kun mobaynida qabul qilish majburiyatini oladi va Loyihachiga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

6.5. Bajarilgan ishlarni topshirish-qabul qilish davomida buyurtmachining asosli e'tirozi bo'lsa, kamchiliklarning ro'yxati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

6.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida, keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofik emasligi ma'lum bo'lib qolsa, tomonlar 5 kun mobaynida bir-birlarini ishlar to'xtatilganligi haqida xabardor qilishlari shart va 10 kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan yo'nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko'rib chiqishlari kerak. Ishlar to'xtatilgan hollarda tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan majburiyatlar yuklanadi.

6.7. O'zaro xisob-kitoblar qilishning muddati kelganligi, tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to'xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan xisoblanadi.

6.8. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar aniqlanganda loyihachi ularni beg'araz bartaraf etadi.

6.9. Agar Loyihachi o'tgan bosqich uchun xisobot bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

## **7. Taraflarning javobgarligi.**

7.1. Loyihachi LSX xujjatlaridagi kamchiliklar uchun, shu jumladan keyinchalik qurilish jarayonida, shuningdek tayyorlangan LSX xujjatlari ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalanish jarayonida aniqlangan kamchiliklar uchun javobgardir va kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qilingan xarajatlarni qoplaydi.

7.2. LSX xujjatlarida kamchiliklar aniqlangan taqdirda Loyihachi Buyurtmachining talabi bilan LSX xujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning oqibatida keltirilgan zararni to'lashi shart.

7.3. Tomonlarning majburiyatlarini bajarmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganliklari uchun javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi» qonunga, hamda O'zbekiston Respublikasi Fuqoralik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.4. Loyihachi tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiymatining 0,1 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatining 20 foizidan oshmasligi lozim.

7.5. Penyaning to'langanligi va zararning qoplanganligi taraflarni o'z majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7.6. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

## **8. Bartaraf etib bo'lmaydigan kuch holati (fors – major).**

8.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolishi tabiiy xodisalar, xarbiy xarakatlar va boshqa bartaraf etib bo'lmaydigan boshqa kuchlar sababli sodir bo'lgan bo'lsa, hamda bu xolat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarining qisman yoki to'la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo'lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chiqargan oqibat xukm surgan vaqtga mos ravishda orqaga suriladi.

8.2. Agar bartaraf etib bo'lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho'ziladigan bo'lsa, Loyihachi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki noma'lum vaqtga to'xtatish uchun chora-tadbirlar ko'rishni muxokama qiladilar. Agar tomonlar ikki oy mobaynida bir to'xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

## **9.Qo'shimcha shartlar**

9.1. Buyurtmachi 1.1 - bandda ko'rsatilgan ob'ektdan tashqari, Loyihachi tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga xaqli emas, Loyihachi olingan birlamchi ma'lumotlardan boshqa maqsadlar uchun foydalanish xuquqiga ega emas.

9.2. Mazkur shartnomada ko'zda tutilmagan tomonlarning o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - xuquqiy bazasi to'grisida»gi qonuniga, hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

## **10.Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari**

10.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va uning shartlari to'liq bajarilguncha o'z kuchida qoladi.

10.2. Shartnomaning muddati tugashiga qaramay, tomonlar javobgarlikdan ozod etilmaydi.

10.3. Shartnomaning amal qilish muddati \_\_\_\_\_ yilgacha.

## **11.Baxslarni hal etish tartibi**

11.1. Shartnomani tuzish, ijro etish, o'zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash chog'ida tomonlar o'rtasida vujudga keladigan baxslar o'zora muhokama qilinib kelishuvga erishish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, qonunchilikda belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

## **12.Shartnomani o'zgartirish va unga qo'shimchalar kiritish tartibi va bekor qilish tartibi.**

12.1. Ushbu shartnomaga xar qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma ravishda rasmiylashtirilgan va taraflarning vakolatli shaxslari tomonidan imzolangan taqdirda xaqiqiy hisoblanadi.

12.2.Shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga taraflarning kelishuviga

ko'ra, yetkazilgan zararni qoplash sharti bilan yo'l qo'yiladi.

12.3. Loyihachining aybi bilan ishlarning borishi to'xtab qolsa va ishlarning tugatilishi shartnomada belgilangan muddatdan bir oydan oshiq muddatga kechiktirilsa, berilgan topshiriqda nazarda tutilgan ishlar sifati mavjud talablarga javob bermasa, Buyurtmachi shartnomani bekor qilishga xaqli.

12.4. Loyihachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra loyiha ishlari Buyurtmachi tomonidan bir oydan oshiq muddatga to'xtatilsa, Buyurtmachi loyihalash ishlarining xaqini to'lash imkoniyatiga ega bo'lmasa, Loyihachi shartnomani bekor qilishga xaqli.

12.5. Shartnomani bekor qilish haqida qarorga kelgan tomon ikkinchi tomonga 10 kun oldin yozma bildirishnoma yuboradi, ikkinchi tomon 10 kungacha e'tiroz bildirmasa shartnoma bekor qilingan hisoblanadi.

### 13. Tomonlarning rekvizitlari:

**Buyurtmachi:**

**Loyihachi:**

Direktor \_\_\_\_\_

Direktor: \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_ ob'ekti bo'yicha loyiha ishlarini bajarish

#### G R A F I G I

№	Ob'ekt nomi va manzili	Ishlar turi	Ishlar qiymati jami, ming sum	shu jumladan		qurilish davomida
				2022 yil		
1	2	3	4	5	6	7
1					-	-
	JAMI				-	-

**Buyurtmachi:**

**Loyihachi:**

Direktor \_\_\_\_\_

Direktor: \_\_\_\_\_



**Buyurtmachi**

**Loyihachli**

2022 yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

№-\_\_\_\_\_-sonli shartnomaga ilova

**ISHLARNI BAJARISH QIYMATINI ANIQLASH**

**VA KELISHISH DALOLATNOMASI**

2022 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_

«Buyurtmachi» \_\_\_\_\_ nomidan  
Nizom asosida ish yurituvchi direktor \_\_\_\_\_ va «Loyihachi» –  
\_\_\_\_\_ nomidan ish yurituvchi  
direktor \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ ob'ekti  
bo'yicha loyiha-smeta xujatlarini ishlab chiqish qiymatini kelishish to'g'risida ushbu dalolatnomani tuzdilar:

**1. LSXni ishlab chiqarish qiymatini aniqlash va kelishish:**

Ob'ektning QMI baxosi QQS bilan – \_\_\_\_\_ ming.so'm;

Loyiha-qidiruv ishlari qiymatini aniqlash to'g'risidagi Nizomning \_\_\_-ilovasi \_\_\_-ustuniga asosan ishchi loyihani ishlab chiqish qiymati darajasi – \_\_\_\_\_%;

kamaytirish qiymati (kelishilgan) – \_\_\_\_\_;

nizomni \_\_\_-chi ilovasi \_\_\_-chi katoriga asosan qiymati (kupaytirish) – \_\_\_\_\_:

Xisoblangan qiymat = \_\_\_\_\_ ming.so'm;

**Kelishilgan qiymat barcha soliqlar bilan – \_\_\_\_\_ so'm.**

Ushbu qiymat shartnoma tuzish va xisob kitob qilish uchun aniqlandi va kelishildi.

**Buyurtmachi:**

**Loyihachi:**

Direktor \_\_\_\_\_

Direktor: \_\_\_\_\_

### Komissiya a'zolari

Institutning ilm-fan  
bo'yicha direktor o'rinbosari

  
F. Boyjigitov

Qashqadaryo ilmiy-tajriba  
stansiyasi direktori

  
I. Hayitov

Qashqadaryo ilmiy-tajriba  
stansiya hisobchisi

  
B. Norqulov

Laboratoriya mudiri

  
Z. Umarov

### Tanlov komissiyasi kotibi

Institutning  
bosh hisobchisi

  
B. Xamrayev